

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Farg`ona viloyatining doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 3644,9 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 57,3 ming kishiga yoki 1,6% ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 2063,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,6%), qishloq aholisi soni 1581,9 ming kishini (43,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **101,6%** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **33,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- **8,1 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **11,2 mingta nikoh** va **1,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Farg`ona viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida)

tirik tug'ilganlar
33,5 ming bola

ko'chib kelganlar
6,6 ming kishi

tabiiy o'sish
+25,4
ming kishi

vafot etganlar
8,1 ming kishi


Aholining
umumiyo'sishi
101,6 %

mexanik o'sish
(kamavish)
-0,7 ming kishi

ko'chib ketganlar
7,3 ming kishi

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 280,8 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,7 %) va Quva tumanida 250,0 ming kishini (6,9 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 90,9 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 75,1 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Uchko'prik tumanida 1,9 %, Qo'sh'tepa, Bag'dod, Rishton, So'x va Furqat tumanlarida 1,8 %, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qo'qon shahrida 1,1 % va Marg'ilon shahrida 1,2 % ni tashkil etdi.

Demografik holat



Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 33,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,6 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 18,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Quvasoy (17,6 promilledan 18,8 promillega) va Qo'qon (17,0 promilledan 18,4 promillega) shaharlarda sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish So'x (16,0 promilledan 13,9 promillega) va Toshloq (21,4 promilledan 19,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qiz bolalar:
15,8 ming
ming nafar

O'g'il bolalar:
17,7 ming
ming nafar

Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni yanvar-iyun (kishi)

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	32905	33471	101,7
Farg'ona sh.	2082	2104	101,1
Qo'qon sh.	2056	2243	109,1
Quvasoy sh.	777	844	108,6
Marg'ilon sh.	2156	2141	99,3
Oltiariq	1748	1814	103,8
Qo'shtepa	1807	1811	100,2
Bag'dod	1900	1910	100,5
Buvayda	2007	2047	102,0
Beshariq	1871	1800	96,2
Quva	2167	2169	100,1
Uchko'priq	2154	2297	106,6
Rishton	1754	1818	103,6
So'x	586	517	88,2
Toshloq	2024	1919	94,8
O'zbekiston	2078	2156	103,8
Farg'ona	2023	2144	106,0
Dang'ara	1716	1662	96,9
Furqat	1022	1058	103,5
Yozyovon	977	1017	104,1

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 8,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 5,0 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan birgina Farg`ona tumanida (4,8 promilledan 4,9 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Qo`qon shahrida (6,0 promilledan 5,0 promillega), Dang`ara (5,7 promilledan 4,7 promillega), Oltiariq (4,8 promilledan 4,0 promillega), Rishton (4,9 promilledan 4,2 promillega) va Uchko`prik (4,5 promilledan 3,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar:
4,4 ming
kishi

Ayollar:
3,7 ming
kishi

Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni yanvar-iyun (kishi)


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	8899	8122	91,3
Farg'ona sh.	847	763	90,1
Qo'qon sh.	721	611	84,7
Quvasoy sh.	202	202	100,0
Marg'ilon sh.	568	567	99,8
Oltiariq	476	404	84,9
Qo'shtepa	446	405	90,8
Bag'dod	454	460	101,3
Buvayda	441	392	88,9
Beshariq	522	488	93,5
Quva	578	512	88,6
Uchko'prik	485	425	87,6
Rishton	465	409	88,0
So'x	141	125	88,7
Toshloq	498	411	82,5
O'zbekiston	582	536	92,1
Farg'ona	478	499	104,4
Dang'ara	466	393	84,3
Furqat	321	309	96,3
Yozyovon	208	211	101,4

Demografik holat

2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 63,3 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,4 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,2 % i o'simtalardan, 4,4 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,8 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 % i yuqumli va parazitar kasalliklардан hamda 10,6 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,2 ming nafarni tashkil etib, ularning 38,0 % i perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 23,6 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 28,2 % i tug'ma anomaliyalardan, 2,3 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,9 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 2,8 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 25,4 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 1,4 ming kishiga (2017 yilning yanvar-iyun oylari-da 24,0 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
25,3 ming kishi



Nikoh. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 11,2 mingta nikoh qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,5 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'shtepa (129,3) tumani, Qo'qon (125,8 %), Quvasoy (125,0 %) va Marg'ilon (124,7) shaharlariiga to'g'ri kelmoqda.



Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi. Ajrimlar soni bo'yicha 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Rishton (158,2 %), O'zbekiston (138,6 %), So'x (135,0 %) va Dang'ara (130,2) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


Hududlar kesimida nikoh tuzish koeffisiyenti

(2018 yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan,promille)



Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffisiyenti

(2018 yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan,promille)



Demografik holat

Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni yanvar-iyun (kishi)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>			<i>Nikohdan ajralishlar</i>		
	<i>2017 y.</i>	<i>2018 y.</i>	<i>O'sish sur'ati</i>	<i>2017 y.</i>	<i>2018 y.</i>	<i>O'sish sur'ati</i>
Farg'ona viloyati	9718	11163	114,9	1718	1725	100,4
Farg'ona sh.	647	707	109,3	229	207	90,4
Qo'qon sh.	655	824	125,8	217	190	87,6
Quvasoy sh.	192	240	125,0	62	51	82,3
Marg'ilon sh.	445	555	124,7	133	98	73,7
Oltiariq	550	656	119,3	63	76	120,6
Qo'shtepa	348	450	129,3	64	74	115,6
Bag'dod	558	685	122,8	84	87	103,6
Buvayda	534	630	118,0	75	80	106,7
Beshariq	733	839	114,5	98	97	99,0
Quva	740	816	110,3	111	107	96,4
Uchko'prik	590	654	110,8	93	63	67,7
Rishton	641	682	106,4	67	106	158,2
So'x	254	293	115,4	20	27	135,0
Toshloq	423	491	116,1	67	63	94,0
O'zbekiston	686	812	118,4	101	140	138,6
Farg'ona	635	618	97,3	89	82	92,1
Dang'ara	512	557	108,8	63	82	130,2
Furqat	329	400	121,6	52	58	111,5
Yozyovon	246	254	103,3	30	37	123,3



Markazdagi demografik holat

Farg'ona viloyatini markazi Farg'ona shahringining doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 280.8 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 2,3 ming kishiga yoki 0,8 % ga 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 2,1 mihg bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 15,2 promilleni tashkil etdi va 2017 yilga nisbatan

0,1 ga (2017 yilning mos davriga 15,1 promille bo'lgan) o'sdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida 763ta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 38 nafar 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 5,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,7ga kamaygan.(2017 yilning mos davrida 6,2 promille bo'lgan) Markaz aholisining tabiy o'sishi 1,3 ming kishini tashil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 106 kishiga o'sishi(2017 yilning mos davrida 1,2 ming kishi bo'lgan)kuzatiladi.

FHDYO organlarida 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 707ta nikoh va 207ta nikoh ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,1 promilleni tashkil qilib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 ga o'sdi (2017 yilning mos davrida 4,7 promille bo'lgan). Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega(2017 yilning mos davrida 1,7 promille bo'lgan) kamaygan.



Migratsiya. 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,7 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 1,2 ming kishi bo'lgan.



Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	6,7	6,6
Ko'chib ketganlar	7,9	7,3
Migratsiya saldosi	-1,2	-0,7

Migratsiya saldosining yuqori kamayish darajasi Marg`ilon (minus 0,3 ming kishi) va yuqori o'sish darajasi Farg`ona (2,1 ming kishi) shaharlarda qayd etildi.